

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ALISHER NAVOIY IJODIDA SHAM' OBRAZINING POETIK TALQINI

Turdiyeva Shodiya Xusniddin qizi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: shturdiyeva1306@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-5515-6990>

Annotatsiya.

Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, tasavvuf adabiyoti o'zining obrazlar tizimi, timsollari va tashbehlari bilan alohida ahamiyatga ega. Ko'plab mutasavvif shoirlar o'zlarining so'z qo'llash mahoratini namoyon etishda she'riy san'atlar, timsollar va obrazlardan unumli foydalanganlar. Shuningdek, bir obrazni turli ma'nolarda qo'llash orqali asarning badiiyligi, tasvirning ta'sirchanligi va shoirlik mahoratini namoyon etganlar. Bunday obrazlar orasida sham' obrazi alohida o'rin tutadi. Tasavvuf adabiyotining ko'plab namoyandalari singari Alisher Navoiy ijodida ham ushbu obrazning turli ma'nolarda qo'llanganini ko'rish mumkin. Mazkur maqolada shoir ijodida uchraydigan sham' obrazining vafo timsoli sifatida gavdalangan baytlari tahlil qilingan. Obrazning asardagi o'rni, badiiy tasvirdagi ahamiyati hamda ijodkor maqsadini yuzaga chiqarishdagi roli o'rganilgan. Sham' obrazi vafo timsoli sifatida qo'llanilganda shoirning badiiy maqsadini qay darajada ochib berishi va obrazning o'ziga xos xususiyatlari tahlillar asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: sham', parvona, obraz, tasavvuf, mutasavvif, mahbuba, oshiq, vafo, yor, muz shushasi, ishq, nur, o't, tashbeh, vasl, ramz.

ПОЭТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА СВЕЧИ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Турдиева Шодия Хусниддин кизи

Институт узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан, независимый исследователь.

Аннотация.

Восточная классическая литература, в частности суфийская литература, отличается своеобразной системой образов, символов и художественных сравнений. Многие поэты-суфии широко использовали поэтические приёмы, символы и образы для раскрытия своего мастерства художественного слова. Использование одного и того же образа в различных значениях позволяло усиливать художественность произведения, выразительность изображения и демонстрировать поэтическое мастерство автора. Среди таких образов особое место занимает образ свечи. Как и у многих представителей суфийской литературы, в творчестве Алишера Навои данный образ используется в различных значениях. В статье анализируются бейты, в которых образ свечи воплощает символ верности. Рассматриваются место данного образа в произведении, его значение в художественном изображении и роль в раскрытии авторского замысла. На основе анализа показаны особенности образа свечи и степень раскрытия посредством него художественного замысла поэта при его использовании в качестве символа верности.

Ключевые слова: свеча, мотылёк, образ, суфизм, суфий, возлюбленная, влюблённый, верность, возлюбленный, ледяное стекло, любовь, свет, огонь, сравнение, воссоединение, символ.

POETIC INTERPRETATION OF THE CANDLE IMAGE IN ALISHER NAVOI'S WORKS

Turdiyeva Shodiya Xusniddin qizi

Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Independent Researcher.

Abstract.

Eastern classical literature, particularly Sufi literature, is distinguished by its distinctive system of images, symbols, and poetic comparisons. Many Sufi poets effectively employed poetic devices, symbols, and images to demonstrate their mastery of artistic expression. The use of a single image in different meanings enabled poets to enhance the artistic quality and expressive power of their works and to demonstrate their poetic skill. Among such images, the image of the candle occupies a special place. As in the works of many representatives of Sufi literature, this image is used in various meanings in Alisher Navoi's poetry. This article analyzes the couplets in which the candle is represented as a symbol of fidelity. It examines the role of this image in the literary work, its significance in artistic representation, and its function in conveying the poet's artistic intention. Through

textual analysis, the study reveals the distinctive features of the candle image and demonstrates how effectively it conveys the poet's artistic purpose when employed as a symbol of fidelity.

Keywords: candle, moth, image, Sufism, Sufi, beloved, lover, fidelity, beloved one, ice glass, love, light, fire, simile, union, symbol.

Kirish. Sharq mumtoz adabiyotida obraz va timsollar muhim ahamiyatga ega. Ular orasida an'anaviy gul, bulbul, yor, oshiq, rind, soqiy, may, murid, murshid, ko'ngil, faqir, mug'bacha, yuz, lab, sarv kabi ko'plab obrazlar singari sham' va parvona ham faol qo'llanilgan. Bu obrazlar xalq og'zaki ijodida ayrim o'rinlarda tor ma'noda foydalanilgan. Parvona mehribonlik, e'tibor, ruh ma'nolarida, sham' esa chiroq, sehrli buyum sifatida tasvirlangan. Obrazlarning yozma adabiyotga ko'chib, faol qo'llanilishiga Qur'oni Karim va hadislar asos bo'lgan. Ular forsiy adabiyotda anchayin rivojlangan va uning ta'siri natijasida turkiy adabiyotda ham keng qo'llanilib, yanada takomillashgan.

Sham' obrazi forsiy va turkiy adabiyotda bevafo, jafokash, beparvo, ozorlovchi yor ma'nosida qo'llanilgan. Tasavvuf adabiyoti namoyandalari ham uni vafosiz yor deya ta'rif etganlar. Mutasavvif shoirlar asarlarida sham' obrazi anjuman va majlislarni yoritib, o'z oshig'i qolib, raqiblar yonida bo'lishi, har safar turli majlislarni yoritishi uning bevafoqligi sifatida ko'rsatiladi.

Adabiyotlar tahlili

Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, tasavvuf adabiyotida obraz va timsollar poetik mazmunni shakllantiruvchi muhim badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Mumtoz she'riyatda sham', parvona, gul, bulbul, may, soqiy, yor, oshiq kabi an'anaviy obrazlar nafaqat tashqi tasvirni ifodalash, balki muayyan falsafiy, tasavvufiy va axloqiy mazmunlarni ifodalash vazifasini ham bajargan. Shu jihatdan sham' obrazi Sharq she'riyati poetikasida ko'p qatlamli ma'no kasb etuvchi an'anaviy obrazlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur obrazning turli ijodkorlar poetik tafakkuridagi o'rni, uning ma'no ko'lam va badiiy funksiyasi bir xil bo'lmay, muallifning dunyoqarashi, estetik qarashlari va tasavvufiy konsepsiyasiga ko'ra o'zgarib borgan.

Jahon adabiyotshunosligida sham' va parvona obrazlari alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida o'rganilgan. Jumladan, Fatma Kopuz Chetinkayaning tadqiqotlarida fors adabiyotidagi sham' va parvona obrazlarining shakllanishi hamda ularning turli badiiy matnlarda qo'llanish xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi mazkur obrazlar ishtirokidagi asarlarni tizimlashtirish va ularni tarjima qilish orqali obrazlarning an'anaviy poetik asoslarini ko'rsatishga harakat qilgan. Shuningdek, Gunay Alpay va Sadik Armutlu tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda sham' va parvona obrazlari, ayniqsa, masnaviy janri doirasida ko'rib chiqilgan. Ushbu izlanishlar sham' va parvona obrazining Sharq mumtoz poetikasidagi barqaror obrazlar tizimiga mansubligini, ularning o'zaro munosabati esa ishq, oshiq va ma'shuqa munosabatlarini ifodalashning muhim poetik modeli ekanini ko'rsatadi.

O'zbek mumtoz adabiyotshunosligida ham obraz, timsol, ramz va obrazlilik masalalari keng o'rganilgan. Xususan, Ibrohim Haqqulovning tasavvuf she'riyati, mumtoz poetika va badiiy obrazlar masalasiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari mazkur yo'nalish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Olim tasavvufiy dunyoqarashda ishq masalasining markaziy o'rnini ta'kidlab, borliqning mohiyatini anglashda ishq tushunchasining alohida ahamiyatga ega ekanini qayd etadi [4, 42]. Bu qarash sham' va parvona obrazlarining semantik asoslarini anglash uchun ham muhimdir. Chunki mumtoz she'riyatda sham'ning nuri, olovi va uning atrofiga aylanayotgan parvona ko'pincha ilohiy ishq, oshiqning fidoyiligi va ma'shuqa bilan bog'liq ruhiy munosabatlarni ifodalovchi poetik vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

I. Haqqulovning "Tasavvuf va she'riyat" asarida tasavvufiy poetikaning asosiy tamoyillari, ramziy obrazlarning mazmuniy xususiyatlari va mumtoz she'riyatni tasavvufiy tafakkurdan ajratib o'rganishning qiyinligi masalalariga e'tibor qaratilgan. Olimning qarashlari sham' obrazini faqat tashqi badiiy bezak sifatida emas, balki chuqur ma'naviy mazmun tashuvchi ramz sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, sham'ning yorug'lik taratishi, yonishi va o'zidan nur chiqarishi kabi tabiiy xususiyatlari mumtoz shoirlar poetik tafakkurida ma'naviy-ma'rifiy mazmun bilan uyg'unlashadi.

Sham' obrazi bilan bog'liq masalalar o'zbek mumtoz adabiyotidagi ramziy obrazlar tizimini o'rgangan tadqiqotchilar ishlarida ham muayyan darajada yoritilgan. Jumladan, Z. Mamadaliyevaning Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimiga bag'ishlangan dissertatsiyasida mumtoz asardagi ramziy obrazlarning poetik va ma'naviy xususiyatlari tahlil qilingan. T. Matyoqubovning Ogahiy she'riyatidagi an'anaviy obrazlar talqiniga bag'ishlangan tadqiqoti esa an'anaviy obrazlarning keyingi mumtoz adabiyot vakillari ijodida qanday yangicha mazmunlar bilan boyitilganini kuzatish imkonini beradi. Z. Qobilovning Amiriy ijodiga, N. Bozorovning Navoiy g'azallaridagi ko'ngil obraziga, N. Ramazonovning Navoiy ijodida faqr talqini va faqir obraziga hamda M. Xolboyevaning Navoiy ijodidagi gul va bulbul obrazlariga bag'ishlangan tadqiqotlari ham mumtoz adabiyotdagi an'anaviy obrazlarning individual ijodkor poetikasida qayta talqin qilinishini o'rganish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Shuningdek, Sharofiddin Sharipovning Navoiy ijodining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqoti hamda Sultonmurod Olimovning ishq, oshiq va ma'shuqa munosabatlarini yorituvchi asarlari mumtoz she'riyatdagi obrazlar tizimini anglash uchun muhim nazariy manbalardan hisoblanadi. Ayniqsa, S. Olimov ishq masalasini mumtoz so'z san'atining mohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qiladi: "Ishq masalasida adashdikmi, bilingki, mumtoz so'z san'atimizning asl mohiyatini ham tushunib yetmaymiz" [3, 47]. Ushbu fikr sham' obrazining poetik mohiyatini o'rganishda ham muhim metodologik asos bo'la oladi. Zero, sham' obrazi o'zining nur, olov, kuyish va parvona bilan munosabat kabi poetik xususiyatlari orqali ishqning turli holatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning bevosita badiiy asarlari esa sham' obrazining individual ijodkor poetikasidagi ma'no o'zgarishlarini aniqlash uchun asosiy manbalardan biridir. "Hayrat ul-abror" dostonida sham' obrazi an'anaviy tarzda

bevafo yor timsoli sifatida emas, balki vafo tushunchasini ifodalovchi badiiy mezon sifatida ham namoyon bo'ladi. Shoir "Yorki, oyini vafo yo'q anga / Sham' kibidurki, ziyo yo'q anga" baytida vafo qilmaydigan yor bilan ziyosi yo'q sham'ni qiyoslaydi [1, 92]. Bu poetik qiyos sham' obrazining oddiy yorituvchi vosita emas, balki yorning ma'naviy sifatini o'lchovchi ramzga aylanganini ko'rsatadi.

"Hayrat ul-abror"dagi "Sham'ki yo'q anda ziyo to'shasi, / O'tsiz erur o'ylaki, muz shushasi" baytida ham sham'ning mohiyati uning nuri va olovi bilan belgilanadi [1, 93]. Mazkur poetik tasvirda sham', nur, olov va muz shushasi o'rtasidagi qarama-qarshilik asosida vafo tushunchasining mohiyati ochiladi. Ya'ni sham'ni sham' qiladigan asosiy belgi uning tashqi shakli emas, balki ichki otashi va ziyosidir. Xuddi shu kabi yorning qadrini belgilaydigan asosiy fazilat ham uning tashqi go'zalligi emas, balki vafosi sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv Navoiy poetikasida an'anaviy obrazning yangi semantik qirrasini yuzaga chiqaradi.

Sham' obrazining vafo bilan bog'lanishi "Farhod va Shirin" dostonida ham kuzatiladi. "Chu ul sham'i vafoda qolmadi nur, / Yetib parvonadek boshig'a Shopur" baytida Farhod "vafo sham'i", Shopur esa unga intiluvchi "parvona" sifatida tasvirlanadi [2, 171]. Bu yerda sham' va parvona munosabati an'anaviy ishqiy model doirasida qolmay, insoniy sadoqat, hamdardlik va do'stlik mazmunlarini ifodalashga xizmat qiladi. Shu tariqa Navoiy bir xil poetik obrazlar tizimidan foydalanib, turli vaziyatlarda turlicha ma'no hosil qiladi.

Umuman, mavjud ilmiy adabiyotlarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, sham' va parvona obrazlari Sharq mumtoz adabiyotida ancha keng qo'llangan bo'lsa-da, ularning barcha semantik qatlamlari bir xil darajada o'rganilmagan. O'zbek adabiyotshunosligida an'anaviy obrazlar, ramziy obrazlar, tasavvufiy poetika va Navoiy ijodidagi badiiy timsollar yuzasidan muhim tadqiqotlar mavjud. Biroq sham' obrazining aynan vafo timsoli sifatidagi talqini, uning nur, olov, muz shushasi, yor va parvona obrazlari bilan semantik munosabati alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha tizimli o'rganilmagan.

Shu jihatdan sham' obrazining Navoiy ijodidagi poetik funksiyasini o'rganish an'anaviy obrazlarning individual ijodkor tafakkurida qayta semantizatsiyalanish jarayonini ko'rsatish imkonini beradi. Ayniqsa, shoirning sham'ni bevafoqlik emas, vafo bilan bog'lashi mumtoz poetik an'anaga ijodiy munosabatning yorqin ko'rinishidir. Bunda obrazning tashqi belgilari — nur, olov, yorug'lik — axloqiy-estetik tushunchalar bilan birlashib, vafoning poetik modelini hosil qiladi. Demak, mavjud adabiyotlar sham' obrazining umumiy poetik va tasavvufiy asoslarini anglash uchun yetarli nazariy zamin yaratgan bo'lsa-da, uning Navoiy ijodidagi vafo timsoli sifatidagi o'ziga xos semantik funksiyasini maxsus va tizimli ravishda tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada Alisher Navoiy ijodidagi sham' obrazining badiiy-semantik xususiyatlarini ochib berishda qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy va strukturaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik metod orqali sham' obrazining an'anaviy va individual talqinlari o'zaro qiyoslandi. Qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida obrazning Sharq mumtoz va tasavvufiy adabiyotidagi shakllanish hamda rivojlanish xususiyatlari kuzatildi. Strukturaviy tahlil yordamida esa Navoiy baytlarida sham', nur, olov, muz shushasi, yor va parvona obrazlarining o'zaro semantik munosabati hamda ularning vafo timsolini shakllantirishdagi poetik vazifasi tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar

Buyuk so'z san'atkori bo'lgan Navoiy baytlarida ham bu obrazning vafosiz yor sifatida tasvirlangan namunalarini uchratamiz. Lekin shoir bu obrazni faqat bir tomonlama tasvirlamaydi. O'zining betakror tasvirlari bilan sham' obrazini turli tomonlardan tasvirlashga harakat qiladi. Sham' obrazi tasavvufiy adabiyotda ishqni tasvirlashda faol foydalaniladi. Ishq haqida fikr yuritilganda ustoz I. Haqqulovning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratish lozim: "Mutasavviflar dunyoqarashida borliq olamdagi bor narsalarning paydo bo'lishiga sabab va buning hikmati Ishqdir. Zotan, Haqning borligi shu ishqdan o'zga bir nima emas" [4, 42]. Darhaqiqat, sham' va parvona obrazlarining asosida ham ilohiy ishq tasviri yotadi. Navoiy o'zining ustozlari, salafalaridan farqli o'laroq, bu obrazni vafo timsoli sifatida ham gavdalantiradi. Shoir "Hayrat ul-abror" dostonining vafo haqidagi qismida undan unumli foydalanadi. Vafoni tasvirlashda sham' obrazi epitetlaridan biri sham'i farog' va shu kabi tashbehlardan foydalanadi.

Vafo haqida mulohaza yuritar ekan, uni nurga (olovga) o'xshatadi va sham' obrazi yordamida tasvirlaydi. Shoir vafo, sham' va muzni bir-biriga o'xshatadi, qiyoslaydi. Bu orqali vafoning yor sifatleri orasida qay darajada o'rin tutishini ko'rsatadi. Aksari ijodkorlar ijodida yorga nisbatan bevafoqlik xos qo'llanilgan va sham' ham shunday bevafo yor sifatida tasvirlangan. Dostonda esa Navoiy o'ziga xos yo'ldan borib, sham'ni yangi bir pozitsiyada gavdalantiradi:

Yorki, oyini vafo yo'q anga.

Sham' kibidurki, ziyo yo'q anga. [1, 92]

Vafosi bo'lmagan yor ziyosi yo'q sham' kabitir. Sham' uchun ziyo qanchalar muhim bo'lsa, yorga ham vafo shunchalar ahamiyatlidir. Ziyosi yo'q sham' na nur taratib atrofni yoritadi, na atrofidagilarni isitadi. Vafosi yo'q yor ham oshiq qalbini na yoritadi, na tafti bilan ilqlik beradi. Garchi ko'plab ijodkorlar asarlarida vafosizlik yorning xislatlaridan biri bo'lsa-da, bu baytda vafo mahbubaning eng muhim fazilati sifatida tasvirlangan. Nur taratish va o't sham'ning, vafo esa haqiqiy mahbubaning asosiy xususiyatidir. Sham' ziyosiz o'z vazifasini bajara olmaydi. U singari vafo ham yorning eng asosiy belgisi bo'lib, vafosiz yor oshiqning jafosi chekishiga munosib bo'lmaydi. Ziyosi yo'q sham'ning qadri bo'lmaydi, unga e'tibor qilinmaydi. Yorni ham yanada go'zal qilib ko'rsatadigan xislati nur kabi vafosidir. Parvona ham sham'ning nuriga intiladi. Oshiq shu parvona singari vafoli mahbuba tomon ko'proq harakat qiladi. Vafo nafaqat yor, balki barcha insonlar uchun muhim fazilatdir.

Shoir vafoni go'zal tashbeh orqali betakror tasvirlaydi. U an'ana sifatida qaralgan yordagi vafosizlikni yangilab, undagi vafoni ustun qo'yadi. Shoir bu tasvir orqali sham' obrazining ma'no qatlamlarini, uni ko'rish rakursini yana bittaga oshiradi.

Muallif sham'ning barcha holatlarini tasvirlashga urinadi. Uning tashbehleri nihoyatda ta'sirli bo'lib, shoir maqsadini ochib berishda "ochqich" kalit sifatida xizmat qiladi. Sharq adabiyotida sham'ni oy, quyosh, yulduzlar singari yoritqichlar, yor, ko'z yosh, jamol kabilarga o'xshatilgan ko'plab misralarni uchratishimiz mumkin, lekin uning vafoli yor tasvirida qo'llanilishi deyarli uchramaydi. Vafo, sham' va muz shushasining bir-biriga o'xshatilib, bir-birini ifodalab kelishi esa juda kam uchraydigan tasvirdir. Quyidagi baytda esa nursiz sham' muz shushasi bilan parallel keltirilib, yordagi vafoni ifodalab keladi:

Sham'ki yo'q anda ziyo to'shasi,
O'tsiz erur o'ylaki, muz shushasi. [1, 93]

Sham'da ziyo sochish ozig'i bo'lmasa, muz sumalagiga o'xshab qoladi. Sham' ko'rinishi jihatdan muz shushasiga o'xshaydi, faqat otash, o't orqali farqlanadi. Sham' ham agar o'tsiz bo'lsa, misoli muz shushasidir. Bu tasvir orqali vafo ham sham'ning otashiga o'xshatiladi. Sham' otashsiz o'z mohiyatini yo'qotgani singari yor ham vafosiz qadrini, asosiy sifatini yo'qotadi, boshqalardan ajralib turmaydi. Navoiy bevafo yor, nursiz sham' va muzning shushasini birgalikda qo'llab, vafoning naqadar muhim ahamiyatga egaligini ochib beradi. Vafo insonga zeb beradi, boshqalardan farqlaydi va ulardan ustunroq ko'rsatadi, u insonning insonligini belgilashda muhimdir.

Shoir asarlarida sham' va uning epitetlari alohida ahamiyatga ega. Shoir asarlarida sham' obrazi epitetlaridan mahorat bilan foydalangan. Navoiy boshqa shoirlar va o'zining asarlarida ko'p qo'llanilgan sham' obrazi epitetlari bilan bir qatorda kam istifoda etilganlaridan ham unumli foydalangan. Bular orasida sham'i vafo epiteti kam foydalanilganlaridan biridir. "Farhod va Shirin" dostonida Shopur va Farhod sham' hamda parvona sifatida tasvirlanadi. Shopur Farhodga mehr, e'tibor ko'rsatadi, uning yonida bo'ladi. Sham'ga parvona intilib, atrofida aylangani kabi Shopur ham Farhodning yonida bo'ladi, uning ahvolidan azoblanadi:

Chu ul sham'i vafoda qolmadi nur,
Yetib parvonadek boshig'a Shopur. [2, 171]

Vafo sham'ida nur qolmadi deya Farhodning behush yiqilganini tasvirlaydi. Uning oldiga kelgan Shopurning holatini parvonaga o'xshatadi. Baytda Farhod vafo sham'i, Shopur esa parvonadir. Shopur Farhodning yo'ldoshi bo'lib, uning harakatlari parvonaga o'xshatiladi. Sham' atrofida aylanib, kuygan parvonadek Shopur ham Farhodning yonida yuradi, uning dardlariga sherik bo'ladi, uning uchun bu dardlar ichida kuyadi. Baytda sham'dagi vafo sifatiga alohida ahamiyat beriladi. Sham' vafoni ifodalab, Farhodning ramzi sifatida qo'llanilgan. Shoir baytda sham' obrazini vafo timsoli sifatida keltiradi. Sham'ga nisbatan ko'p qo'llanilgan bevafoqlikning aksi bo'lgan vafo bu obrazning yangi jihatlarini tasvirlaydi.

Muhokama

Alisher Navoiy ijodida sham' obrazining poetik talqinini kuzatish uning an'anaviy ma'nolardan tashqari yangi semantik imkoniyatlar bilan boyitilganini ko'rsatadi. Mumtoz Sharq she'riyatida sham' ko'pincha beparvo yoki jafokash yor, uning atrofida aylanib kuyuvchi parvona esa oshiq timsolida talqin qilinadi. Navoiy esa mazkur an'anaviy modelni saqlagan holda, sham' obrazining ma'no doirasini kengaytiradi va uni vafo tushunchasi bilan bog'laydi. Bu jihat shoirning an'anaviy obrazga ijodiy munosabatini namoyon etadi.

Sham'ning vafo timsoli sifatidagi talqinida uning nur va olov xususiyatlari asosiy poetik belgiga aylanadi. "Hayrat ul-abror"dagi "Yorki, oyini vafo yo'q anga / Sham' kibidurki, ziyo yo'q anga" baytida yorning vafosi sham'ning ziyosi bilan qiyoslanadi [1, 92]. Bu qiyos orqali vafo tashqi bezak emas, balki mahbubaning mohiyatini belgilovchi asosiy sifat sifatida ko'rsatiladi. Ziyosiz sham' o'z vazifasini bajara olmagan kabi, vafosiz yor ham oshiq uchun o'zining ma'naviy qimmatini yo'qotadi.

Keyingi baytda sham' va muz shushasi o'rtasidagi qarama-qarshilik yanada chuqurroq semantik mazmun hosil qiladi: "Sham'ki yo'q anda ziyo to'shasi, / O'tsiz erur o'ylaki, muz shushasi" [1, 93]. Bu yerda sham'ning tashqi ko'rinishi emas, uning ichki olovi muhim belgi sifatida ajratiladi. Olovdan mahrum sham' muz shushasiga tenglashtirilishi orqali vafosiz yorning ham tashqi go'zalligi yetarli emasligi ta'kidlanadi. Demak, Navoiy poetikasida olov — vafo, ziyo — ruhiy ta'sir, sham' — vafo timsoli sifatida o'zaro bog'langan semantik tizimni yuzaga keltiradi.

Mazkur talqin "Farhod va Shirin" dostonida ham davom ettiriladi. "Chu ul sham'i vafoda qolmadi nur, / Yetib parvonadek boshig'a Shopur" baytida Farhod "vafo sham'i", Shopur esa parvonaga qiyoslanadi [2, 171]. Bu o'rinda sham' va parvona munosabati faqat ishqiy munosabatni emas, balki insoniy sadoqat va hamdardlikni ifodalashga xizmat qiladi. Shopurning Farhod holidan iztirob chekishi parvonaning sham' atrofida aylanishi bilan parallel qo'yilib, vafo tushunchasining harakatdagi badiiy ifodasi yaratiladi.

Sham' obrazining bunday talqini Navoiy poetik tafakkurida an'ana va yangilik munosabati masalasini ham ko'rsatadi. Shoir an'anaviy obrazni butunlay o'zgartirib yubormaydi, balki uning mavjud semantik asoslariga yangi ma'no yuklaydi. Sham'ning nur sochishi, yonishi, parvonani o'ziga jalb qilishi kabi an'anaviy belgilar saqlangan holda, ular vafo, sadoqat va insoniy fazilatlarni ifodalashga yo'naltiriladi. Shu sababli sham' obrazi Navoiy ijodida ko'p qatlamli poetik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Bu jarayonni tasavvufiy ishq tushunchasidan ajratib ham bo'lmaydi. I. Haqqulov mutasavviflar dunyoqarashida borliqning paydo bo'lishi va mohiyatini ishq bilan bog'laydi [4, 42]. S. Olimov esa mumtoz so'z san'atining mohiyatini anglashda ishq masalasining alohida ahamiyatini ta'kidlaydi [3, 47]. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, sham'ning vafo timsoliga aylanishi ham oddiy axloqiy tushuncha doirasida qolmay, ishq, sadoqat va ruhiy yaqinlik kabi tushunchalar bilan uzviy bog'lanadi.

Umuman, muhokama qilingan poetik namunalar Navoiy sham' obrazidan foydalanishda mavjud an'anani takrorlash bilan cheklanmaganini ko'rsatadi. U sham'ning nur, olov va parvona bilan munosabati asosida yangi badiiy-semantik aloqalar yaratgan. Ayniqsa, sham'ni vafo timsoli sifatida talqin etishi obrazning an'anaviy semantikasini

kengaytirib, uni axloqiy-estetik mazmun bilan boyitgan. Shu jihatdan Navoiy poetikasida sham' obrazi nafaqat ishqiy munosabatning, balki insoniy sadoqat va vafo tushunchalarining ham muhim badiiy ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biz o'rganib qolgan, odatiy ma'nolarda qo'llanilgan obrazlarga turli tomonlardan nazar solib, uning yangi qirralarini ochish mumkin. Sham'dagi otash uni muz shushasidan farqlagani kabi, yorning vafosi boshqa go'zallardan ajratib turadi. Yor majlis aro porlab, nur sohib turishi qalbidagi yashirin vafosidandir. Navoiy o'zi qo'llagan har bir obraz va timsolga alohida e'tibor qaratgan. Shoir ularni turli burchaklardan tasvirlashga, ularning yangi ma'nolarini yuzaga chiqarishga harakat qilgan. U o'zi qo'llagan ko'plab obrazlar singari sham' obrazining ham yangi ma'nolarini kashf etgan. Sham' obrazi Sharq mumtoz adabiyotida, xususan, Navoiy ijodida vafo timsoli sifatida o'rganilganda ham, boshqa ma'nolarda ham uning asosida ishq yotadi. Shuning uchun tahlil jarayonida ishq masalasiga alohida ahamiyat berish lozim. Bu borada Sultonmurod Olimov quyidagi fikrlarni bildiradi: "Ishq masalasida adashdikmi, bilingki, mumtoz so'z san'atimizning asl mohiyatini ham tushunib yetmaymiz" [3, 47]. Sham' obrazini o'rganishda ham bu fikrlar ahamiyatlidir. Uni ma'shuqa sifatida ham, vafo timsoli sifatida ham o'rganishda ishq kabi nozik masalaga chuqurroq va kengroq e'tibor qaratish kerakdir. Faqat shundagina bu obrazning turli ma'nolari, mohiyatini teranroq anglaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. *Hayrat ul-abror* / tahrir hay'ati: A. Qayumov va boshq.; so'zboshi muallifi A. Hayitmetov; mas'ul muharrir V. Rahmonov. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 352 b. – (O'zbek adabiyoti bo'stoni).
2. Alisher Navoiy. *Farhod va Shirin: nasriy bayoni bilan* / tahrir hay'ati: A. Qayumov va boshq.; tuzuvchi A. Erkinov; mas'ul muharrir V. Rahmonov. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 592 b. – (O'zbek adabiyoti bo'stoni).
3. Haqqulov I. Ch. *O'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti (g'oyaviylik, izdoshlik, obrazlar olami): filol. fan. d-ri diss.* – Toshkent, 1995. – 282 b.
4. Rafiddinov S. S. *Atoyiyning poetik mahorati: filol. fan. nomz. diss.* – Toshkent, 1993. – 156 b.
5. Mamadaliyeva Z. U. *Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi: filol. fan. nomz. diss.* – Toshkent, 2011. – 177 b.
6. Matyoqubova T. R. *Ogahiy she'riyatida an'anaviy obrazlar talqini: filol. fan. nomz. diss.* – Toshkent, 2001. – 134 b.
7. Qobilova Z. B. *Amiriy va uning adabiy faoliyati: filol. fan. nomz. diss.* – Toshkent, 2007. – 134 b.
8. Bozorova N. P. *Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil obrazi ("Badoye ul-bidoya" devoni asosida): filol. fan. nomz. diss.* – Toshkent, 2002. – 135 b.
9. Ramazonov N. *Alisher Navoiy ijodida faqr talqini va faqir obrazi: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.* – Toshkent, 2019. – 146 b.
10. Xolboyeva M. U. *Alisher Navoiy ijodida gul va bulbul obrazi: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.* – Toshkent, 2025. – 131 b.
11. Sharipov Sh. *Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.* – Toshkent: Fan, 1982. – 94 b.
12. Olimov S. *Ishq, oshiq va ma'shuq.* – Toshkent: Fan, 1992. – 80 b.
13. Haqqulov I. *Tasavvuf va she'riyat.* – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 184 b.
14. Haqqulov I. *Navoiyga qaytish. 5-kitob: publitsistika.* – Toshkent: Tafakkur MChJ, 2024. – 128 b.